

QOHIRA DEKLARATSIYASI TARIXI VA MAZMUNI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika
fakulteti Pedagogika yo`nalishi talabasi*

Musurmonova Gulshoda

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika
fakulteti Pedagogika yo`nalishi talabasi*

Abduvaliyeva Marjona

Annotasiya: Qohira Deklaratsiyasi 1964-yil 13-dekabrda Misrning poytaxti Qohirada Arab davlatlari Ligasida (ADL) tomonidan qabul qilingan hujjatdir.

Ushbu deklaratsiya falastinliklarning huquqlarini himoya qilish Isroilga qarshi kurashni kuchaytirish, Arab dunyosida yagona siyosiy front yaratish maqsadida e'lon qilindi. Ushbu maqolada Qohira deklaratsiyasining tarixiy ahamiyati, mazmuni va unga ta'sir etgan omillar tahlil qilinadi.

Kalit so'z: Tarixiy konteksti, deklaratsiya mazmuni, deklaratsiyaning tarixiy va siyosiy ahamiyati.

Kirish: 1948-yilgi BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan so'ng, turli madaniy va diniy muhitda yashovchi davlatlar bu hujjatga o'z yondashuvlarini bildirishdi. SHU jumladan Islom Hamkorlik

Tashkilotiga a'zo davlatlar tomonidan "Islomdagi inson huquqlari deklaratsiyasi" deb atalgan Qohira deklaratsiyasi qabul qilindi.

Asosiy qism: 1960-yillar boshida Arab dunyosi, ayniqsa Falastin va Isroil masalasi yuzasidan keskin siyosiy ziddiyatlarga duch kelgan edi. 1948-yilda Isroilning tashkil topishi va undan keyingi yillarda Falastin xalqining ko'plab hududlari Isroil tomonidan egallab olishi Arab mamlakatlari tomonidan qattiq qarshilik bilan kutib olindi. 1964-yilda BMT tomonidan Falastin masalasini hal qilish uchun yangi harakatlar boshlandi. Shu davrda Falastin milliy harakati kuchayib, Arab davlatlarining siyosiy bosimi ostida, Falastin Milliy Idorasi tashkil etildi. Deklaratsiya, Falastin xalqining mustaqillik, erkinlik va o'z taqdiri ustida hukmronlik qilish huquqini tan oladi. Falastin xalqining Isroilga qarshi kurashni davom ettirishi, uning huquqlarini himoya qilish va erkinligini ta'minlash muhim vazifa sifatida belgilandi.

Qohira deklaratsiyasi 1943-yilning 22-23-noybrida Misrning poytaxti Qohirada o'tkazilgan uch tomonlama sammitda qabul qilindi. Ushbu deklaratsiya, ikkinchi jahon urushi davomida Buyuk Britaniya, AQSH, va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi diplomatik kelishuvning muhim qismi bo'lib, Germaniya va Italiyaga qarshi kurashni davom ettirish, urushdan keyingi dunyo tartibini shakllantirish va tinchlikni tiklash masalalariga e'tibor qaratilgan.

Biroq, Qohira deklaratsiyasi faqat harbiy va siyosiy kontekstdan iborat bo'lmay, balki uning diniy va madaniy jihatlari ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu maqolada Qohira deklaratsiyasining tarixiy, siyosiy va diniy mazmuni tahlil qilinadi.

1990-yilning 5-avgustida Islom Hamkorlik Tashkilotining Qohira shahrida bo'lib o'tgan 19-yig'ilishida Qohira deklaratsiyasi qabul qilindi. U "Islomdagi Inson huquqlari deklaratsiyasi" nomi bilan e'lon qilinib, OICga a'zo 45dan ortiq davlat tomonidan tasdiqlandi. Bu hujjat G'arb modeli asosida emas, balki shariatga tayanib, Oloh tomonidan berilgan huquq va erkinliklar asosida ishlab chiqilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu deklaratsiya musulmon mamlakatlarining mustaqil huquqiy nuqtai nazarini shakllantirishga qaratilgan ilk qadam sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi.

Deklaratsiyasining asosiy tamoyillari va tuzilmasi.

Qohira deklaratsiyasi 25moddadan iborat bo'lib, ularning barchasi Islomiy shariatga asoslanadi. Deklaratsiyaning 1-moddasida inson huquqlari Allohning irodasidan kelib chiqadi, degan g'oya ilgari surilgan.

Deklaratsiyaning xalqaro huquqiy normalar bilan o'zaro munosabati:

Qohira deklaratsiyasi BMTning Inson huquqlari deklaratsiyasiga alternativ emas, muqobil madaniy -diniy model sifatida ko'riladi. Diniy cherkovlar –Tarbiya diniy erkinlik dinni o'zgartirishni o'z ichiga olsa, Qohira deklaratsiyasida bu huquq rad etiladi.

Xulosa: Qohira deklaratsiyasi qabul qilingandan so'ng, bir qancha musulmon davlatlar bu hujjatga tayangan holda milliy konstitutsiyalarini isloh qilishga kirishadi. Masalan:

Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston kabi davlatlar o'zining asosiy qonun hujjatlarida shariat asosida ishlab chiqilgan huquqiy normalarni birlamchi deb e'lon qildilar. Qohira deklaratsiyasi zamonaviy inson huquqlari masalasiga islomiy yondashuv asosida ishlab chiqilgan muhim hujjatdir. Deklaratsiya shariatni asosiy mezon sifatida qabul qilgan bo'lib, bu uni G'arb huquqiy tamoyillaridan tubdan farqlaydi. Kelajakda Qohira deklaratsiyasining yangi versiyasi ustida ishlash, u orqali shariat tamoyillariga tayangan holda inson huquqlarining universal shaklini takomillashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Bu boradagi muvaffaqiyat, albatta, islomiy huquqshunoslar, siyosatshunoslar va xalqaro huquq mutaxassislarining birgalikdagi ilmiy sa'y-harakatlari bilan bog'liq bo'ladi. Chunki har bir jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, tarixiy tajribasi va qadriyatlar tizimi farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baderin.M.A(2003) Internatsional Human Rights and islomic.
2. Islom hamkorlik tashkiloti OIC(1990) Qohira deklaratsiyasi: inson huquqlari bo'yicha Islom deklaratsiyasi.

3.TDPI Xudoyberdiyeva Zilola maqola.

4.<https://essebot.ru>

5.Joniuzoqova Mashhura maqola.

6.<https://hujjat24.uz>